

SHARQ UYG'ONISH DAVRI MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA MUSIQAGA OID FIKRLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19504958>

Orolmirzo Safarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Milliy qo'shiqchilik" kafedrasasi professori*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda IX-XV asrlarda yuz bergan Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari - Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Abdurahmon Jomiy kabi olimlarning ilmiy merosida musiqaning o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda musiqaning nafaqat estetik zavq manbai, balki inson ruhiyatini davolash, axloqiy tarbiya va matematik aniqlikka asoslangan fan sifatidagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar

Sharq, uyg'onsh davri, mutafakkir, musiqa, asar, tarbiya, terapiya, estetik zavq, zamonaviy, tafakkur.

Аннотация

В данной статье анализируется роль музыки в научном наследии мыслителей Восточного Возрождения в Центральной Азии в IX-XV веках - таких ученых, как Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина и Абдурахман Джамии. В исследовании освещается значение музыки не только как источника эстетического наслаждения, но и как науки, основанной на исцелении психики человека, нравственном воспитании и математической точности.

Ключевые слова

Восток, эпоха Возрождения, мыслитель, музыка, произведение, воспитание, терапия, эстетическое наслаждение, современность, мышление.

Annotation

This article analyzes the role of music in the scientific heritage of thinkers of the Eastern Renaissance in Central Asia in the 9th-15th centuries - such scholars as Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, and Abdurrahman Jami. The study highlights the significance of music not only as a source of aesthetic pleasure, but also as a science based on the healing of the human psyche, moral education, and mathematical accuracy.

Key words

East, Renaissance, thinker, music, work, upbringing, therapy, aesthetic pleasure, modern, thinking.

Oxirgi davrlarda O'zbekistonda musiqa madaniyatiga qaratilayotgan e'tibor misli ko'rilmagan darajaga ko'tarildi. Yurtimizda milliy musiqiy merosni ko'z qorachig'idek asrash, uni yanada yuksaltirish hamda xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish yo'lida talaygina istiqbolli loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa anjumani, «Buyuk ipak yo'li» xalqaro folklor san'ati festivali hamda «Raqs sehri» kabi nufuzli ijodiy forumlar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, davlat ahamiyatiga molik maxsus dasturlar doirasida musiqiy ta'lim bosqichlari tubdan isloh qilinmoqda. Sohaga oid yangi ixtisoslashgan maktablar, san'at kollejlari va oliy ta'lim muassasalari tarmog'i kengaytirilib, ularning faoliyati zamon talablari asosida qayta tashkil etilmoqda. Bu sa'y-harakatlar milliy san'atimizning kelajak vorislarini tayyorlashda muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Zero, "xalqimiz azal-azaldan san'atga mehr va ixlos qo'yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvvati deb biladi. Buyuk Sharq mutafakkirlari musiqa ilmi va tarixi, maqom san'ati, cholg'u sozlari haqida ajoyib asarlar yaratganlar. Biz barchamiz mana shunday o'lmas madaniy merosning vorislarimiz. Binobarin, bu ulkan merosni birgalikda o'rganish va keng targ'ib etish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan eng muhim vazifadir". Mazkur beqiyos madaniy boylikni atroflicha tadqiq qilish, uni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, navqiron avlod qalbi va shuuriga jo qilish hamda dunyo miqyosida keng yoyish har birimizning yuksak ma'naviy mas'uliyatimiz sanaladi. Zero, ushbu meros shunchaki moziy bilan faxrlanish vositasi bo'lib qolmay, balki bugungi taraqqiyot va milliy o'zlikni anglash yo'lidagi eng muhim tayanch nuqtasidir.

Markaziy Osiyo hududidan qadimgi davrlarga mansub bo'lgan ko'plab madaniy meros namunalari aniqlangan. Xususan, Farg'ona vodiysi hududida joylashgan Saymalitosh qoyatosh rasmlari (petrogliflari) diqqatga sazovordir. Mazkur yodgorliklarda aks etgan tasvirlarga ko'ra, qadimiy musiqa asboblardan biri sifatida daf cholg'usi ko'zga tashlanadi. Uning tuzilishi o'rtasi teshilgan va aylana shakliga keltirilgan, usti teri bilan qoplangan ulkan tosh ko'rinishida ifodalangan. Bizningcha, Saymalitosh qoyatoshlaridagi ushbu tasvirlar o'lkamizda musiqa madaniyati ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqalishidan hamda o'sha paytlardayoq san'at turlari o'ziga xos tarzda shakllanganidan dalolat beradi.

VI–VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida madaniyat va sanʼat sohasi mislsiz darajada taraqqiy etgani bilan ajralib turadi. Xususan, musiqa hamda xonandalik sanʼati turlari tobora takomillashib, yuksak choʻqqilarga koʻtarilgan. Ushbu sohalarning jadal rivoji, ayniqsa, Soʻgʻdiyona kengliklarida yaqqol namoyon boʻlgan. Qadimgi oʻlkamiz musiqiy merosi naqadar boy boʻlganligini mintaqaning turli nuqtalarida oʻtkazilgan arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlangan moddiy manbalar ham tasdiqlaydi. Sozandalar surati aks ettirilgan turli xil ashyolar va sopol buyumlar buning yorqin isbotidir. Masalan, tadqiqotchi olim A. Belinskiyning eʼtirof etishicha, birgina Panjikent shahrida birorta tantana, bayram yoki motam marosimi sozandalar, xonandalar va raqqosalarning ishtirokisiz oʻtmagan. Shuningdek, V–VI asrlarga tegishli Bolaliktepa yodgorligidan topilgan devoriy suratlarda bayram bazmi tasvirlangan boʻlib, unda chang va nay cholgʻularini chalayotgan musiqachilar hamda ashula aytayotgan sanʼatkorlar aks etgan.

Qadimgi Sharq xalqlari hayotida musiqa amaliy, marosimiy hamda axloqiy-maʼrifiy jabhalarda faol qoʻllanilgan. Xususan, “Avesto” va “Veda” kabi qadimiy manbalarda musiqaning qadri, uning ruhiyatga taʼsiri va madaniy oʻrni yuksak baholangan. Bu esa musiqa nafaqat nafosat turi, balki shaxsning maʼnaviy yuksalishi uchun xizmat qiluvchi muhim omil boʻlganidan dalolat beradi.

Keyinchalik musiqa sanʼati insoniyat intellektual salohiyatining mahsuli sifatida turli olimlar tomonidan ilmiy tahlil etildi va nazariy jihatdan asoslandi. Jumladan, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Faxriddin ar-Roziy, Abu Homid al-Gʻazzoliy, Jaloliddin Rumiy, Umar Xayyom, Kaykovus, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi siymolar oʻz asarlarida musiqa sanʼatining kelib chiqishi, oʻziga xos jihatlari va tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etganlar.

Masalan, Abu Nasr Forobiy oʻzining “Kitob al-musiqa al-kabir” risolasida musiqaning tarixiy manbalari haqida qimmatli mulohazalar yuritib, uning sheʼriyat bilan uygʻunligini ilmiy isbotlab bergan. Abu Ali ibn Sino musiqaning inson ruhiy olamiga ijobiy taʼsirini hamda ohang yordamida xastaliklarni muolaja qilish imkoniyatlarini yoritgan boʻlsa, Abu Homid al-Gʻazzoliy musiqaning inson qalbini poklash va koʻngilga taskin berish xususiyatlarini alohida eʼtirof etadi. “Kitob al-musiqa al-kabir” (Musiqa haqida katta kitob) asari oʻrta asrlar musiqashunosligining qomusi hisoblanadi. U musiqani ikki turga boʻladi: nazariy va amaliy. Farobiy birinchi boʻlib tovushlarning fizik xususiyatlarini, intervallarni va ritmik oʻlchovlarni matematik hisob-kitob asosida isbotlab berdi. Shuningdek, u ud va tanbur kabi cholgʻularning tuzilishini ilmiy tavsiflagan.

Sharq mutafakkirlarining musiqa ilmi borasidagi izlanishlariga nazar tashlaydigan boʻlsak, Abu Nasr Forobiy ushbu soha nazariyasini shakllantirishda

beqiyos ilmiy meros qoldirganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, alloma Xuroson tanburining tuzilishi va xususiyatlari yuzasidan qator nazariy xulosalarni bayon etgan hamda bevosita o'zi ham o'ziga xos milliy sozandachilik asboblarni kashf qilgan. Uning fikriga ko'ra, "Jangu-jadallarda, raqslarda, to'y tomoshalarda, ko'ngilochar bazmlarda ham qo'shiq kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor". Forobiy o'z davrining benazir sozandasi va yetuk musiqashunos olimi sifatida tanilgan. U o'sha zamonda mavjud bo'lgan barcha cholg'u asboblarni mahorat bilan chala olgan, ayniqsa, nay va tanbur ijrosida yuksak cho'qqilarga erishgan. Ayrim tarixiy manbalarda qayd etilishicha, mutafakkir qonun cholg'usini kashf etgan hamda o'sha davrning eng ommabop asboblardan biri bo'lgan udning takomillashuviga ulkan hissa qo'shgan. Xususan, udga beshinchi torning qo'shilishi ushbu cholg'uning imkoniyatlarini kengaytirib, uning shuhratini yanada oshirgan. Bizningcha, allomaning musiqa san'ati rivojidadagi eng buyuk xizmati – Sharq musiqa nazariyasiga tamal toshini qo'ygani va professional musiqa amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'targani bilan belgilanadi.

Alohida qayd etish joizki, Forobiyning «Kitob al-musiqa al-kabir» («Musiqa haqida katta kitob») asari turli jahon tillariga o'girilgan. Xususan, D.Erlanjening sa'y-harakatlari bilan ushbu manbaning fransuz tilidagi to'liq tarjimasini chop etilishi natijasida G'arb dunyosi allomaning musiqiy ilmiy merosi bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Mazkur tarjima sharofati bilan Forobiy qarashlari Yevropa ilm-faniga keng joriy etildi. Shuningdek, asarning ayrim boblari fors va turk tillarida ham nashr qilingan bo'lib, rus, o'zbek hamda qozoq tillariga qisman tarjima qilingan variantlari mavjud.

Strukturaviy jihatdan ushbu asar ikki yirik bo'limdan iborat: birinchi qismda musiqiy bilimlarining nazariy va amaliy asoslari batafsil bayon etilgan bo'lsa, ikkinchi qismda o'tmish mutafakkirlarining musiqa san'atiga doir qarashlaridagi ayrim kamchilik va xatoliklarga ilmiy izohlar berilgan. Allomaning ushbu fundamental kitobi Sharq olamidagi musiqaga bag'ishlangan eng mukammal va dovrug'i baland asar hisoblanib, u keyingi asrlarda ijod qilgan barcha musiqashunos olimlar uchun asosiy nazariy manba vazifasini o'tagan.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida IX-XV asrlar oralig'ida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarida yuz bergan intellektual yuksalish – Sharq uyg'onish davri fanning barcha sohalari qatori musiqa san'atida ham tub burilish yasadi. Bu davrda musiqa shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki to'rtlik fanlar: arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa tarkibidagi aniq va mantiqiy fan sifatida e'tirof etiladi.

Sharq Renessansi davrida musiqa inson komilligiga erishish yo'lidagi asosiy vositalardan biri deb qaralgan. Mutafakkirlar musiqiy ta'limni yoshlarning didini

shakllantirish, ularda go'zallikni his qilish tuyg'usini uyg'otish va tajovuzkorlikni jilovlash usuli sifatida targ'ib qilganlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining musiqaga oid qarashlari shunchaki nazariy mulohazalar emas, balki qat'iy ilmiy tizimga asoslangan fundamental tadqiqotlardir. Olib borilgan tahlillar quyidagi yakuniy xulosalarga kelish imkonini yaratdi. Sharq olimlari musiqani matematika, astronomiya va tibbiyot fanlari bilan uyviy bog'liqlikda ko'rishgan. Bu esa musiqiy tovushlaning fizik tabiati va inson fiziologiyasiga ta'sirini chuqurroq anglashga xizmat qilgan; Mutafakkirlar ijodida musiqa ison komilligiga erishish vositasi sifatida talqin etilgan. Xususan, musiqaning axloqni poklovchi va ruhni tarbiyalovchi xususiyat birinchi planga chiqadi; Farobiy va uning izdoshlari tomonidan yaratilgan musiqiy intervallar, ritmik o'lchovlar va cholg'ushunoslikka oid qoidalar bugungi kunda ham o'z ilmiy qiymatini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy musiqashunoslikning tamal toshi bo'lib xizmat qilmoqda; O'rta asrlar Sharq musiqiy madaniyati G'arb Renessansiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatib, jahon sivilizatsiyasining umumiy estetik rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ushbu merosni o'rganish hozirgi davrda milliy musiqa san'atini ilmiy asosda rivojlantirish va yosh avlodning musiqiy tafakkurini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi/ <https://president.uz/uz/lists/view/7498>.
2. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. – Toshkent, 2009. – 252 b.
3. U.U.Mansurov, A.Sh.To'xtabayev. "O'zbekistonning madaniyati va san'ati tarixi". O'quv qo'llanma. Toshkent: "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi" 2021. 188 b.
4. Umarov Sh. Musiqa cholg'ularini o'rganish (Qashqar rubob) kitobi. – Toshkent, 2018. 176 b.
5. Dauletbek, A., & Dilafruz, E. (2025). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MASTERY IN TEACHING VARIETY PERFORMANCE TO STUDENTS. *SHOKH LIBRARY*.
6. Dilafruz, E. (2025). THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL READINESS OF THE STUDENT IN THE PROCESS OF PIANO PRACTICE. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(11), 115-123.

7. Qizi, A. N. F. (2022). ALISHER NAVOIY VA MUSIQA. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(Conference DSMI), 252-555.
8. Yusupaliyeva, D. Q. (2024). NOMODDIY MADANIY MEROSNI MUHOFAZA QILISH, ASRASH VA TARG'IB ETISH MASALALARI. *Inter education & global study*, (4 (1)), 334-342.
9. Alfiya, Q. (2023). Milliy Musiqa San'ati Va Yoshlar Tarbiyasi. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1, 16-20.
10. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4, 259-262.
11. Nazarbaevna, Q. A., & Saliyevna, Y. Z. (2025). SPECIFIC FEATURES AND CHALLENGES OF TEACHING AMATEUR CHOREOGRAPHY TO STUDENTS. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, 3(10), 95-103.
12. Oybekovna, K. M. RHYTHM AND ALGORITHM: THE SYNERGY OF MUSIC EDUCATION WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE.
13. Malika, K. (2025). THE DEVELOPMENT PATH OF MUSIC EDUCATION IN UZBEKISTAN AND ITS CURRENT CONDITIONS. *SHOKH LIBRARY*, 1(12).
14. Yo'lchiyeva, M. (2018). An'anaviy yakka xonandalik. *O'quv qo'llanma Toshkent*.
15. Yo'lchieva, M. (2025). YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDA MUSIQA SAN'ATINING O 'RNI SHARQ VA G'ARB MUSIQIY ALOQALAR. *FRANCE-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION*, 1(3), 18-24.
16. Abduvaliyevna, M. Y. (2025). THE YUNUS RAJABIY MAQOM ENSEMBLE: ARTISTIC HERITAGE, PERFORMANCE TRADITIONS AND CULTURAL SIGNIFICANCE. *World Bulletin of Education and Learning*, 1(02), 377-388.
17. Ulmasovich, R. U. (2025). O'zbek mumtoz musiqasi merosining milliy va umumbashariy qadryatlari. *France-Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education*, 1(3), 8-13.
18. Rasulov, U. U. (2024). Yangi O 'zbekiston taraqqiyotida maqom san'atining tutgan o 'rni. *Inter education & global study*, (4), 403-411.
19. Улашева, М. А. (2019). Роль певческих голосов в мире макомов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (137)), 91-93.

20. Axmadovna, U. M., & Qizi, T. M. R. (2024). DISTRIBUTION OF THE WORK OF UZBEK FEMALE MAKOM PERFORMERS IN SOCIAL NETWORKS. *European Journal of Arts*, (3), 56-59.
21. Ulasheva, M. A. (2024). The Place of Female Performers In Makom Performance and Their Styles. *EUROPEAN JOURNAL OF ARTS Учёба.ру: Premier publishing sro*, (2), 103-105.
22. Ulasheva, M. A. (2022). AN'ANAVIY XONANDALIKDA OVOZ XUSUSIYATLARI, TA'LIMDA INNOVATSIYON YONDASHUVLAR. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 120-122.